

**MILLIY QADRIYATLAR NEGIZIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR
XUSUSIYATINING E'TIROF ETILISHI .**

Xoldorova Iroda Valijonova

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.(PhD),dotsent.

Xomidjonova Guli Karimberdi qizi.

Magistratura talabasi

Annotatsiya. So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri- jamiyatdan millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash,do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagonaoila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshiriladi.¹ Buyuk islohotlar, ulkan o'zgarishlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'lgan, sog'lom fikrlay oladigan yoshlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi,intiluvchan, izlanuvchan, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir.

Kalit so'zlar. Milliylik,millat,ma'daniyat,falsafa,dunyoqarash, qadriyat, milliy qadriyat, ma'naviy qadryatlar, ma'naviy boylik.

Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham, «milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat - o'zining qadriyatlarini dunyoga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tamon eltid boradigan eng asosiy obyektdir».

Milliy qadriyatlarning negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayram-u sayillar tashkil etadi. o'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va oat - onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonlama ardoqlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha mil-latga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazi-latlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir.

¹O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-sonfarmoni 1-ilova.

Milliy qadriyatlarni tiklash ularga hozirgi zamonga mos yangi mazmun baxsh etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekiston davlat musatqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik Qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi. Inson haq - huquqlariga rioya qilish, tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi, ana shular jumlasidan edi.

Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarmizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yer yuzidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatnrg necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni nomoyon qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, rivojlanib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb nomlash mumkin bo'ladi.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlар milliy qadriyatlар deyiladi. Milliy qadriyatlар millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarmiz asosini belgilaydi. Xalqimiz juda qadim paytlardan boshlaboq ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu yer va suv yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiliginu muhim manbayi bo'lgan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlari kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham beziz emas. Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat hisoblanadi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini — oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan

o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlarini e'zozlash, muqaddas qadamjolarni asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamli jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan bog'liq tarzda olib borilmoqda. Bu esa O'zbekistonni o'zining muqaddas Vatani deb barcha fuqarolarimiz orasidagi o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik fazilatlarining namoyon bo'lishida, Yurtboshimizning «Shu aziz Vatan barchamizniki» degan ezgu g'oyasi hayotga izchil tatbiq qilinishi muhim rol o'ynamoqda.²

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan yana biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromi, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-onan farzandning suyanchig'i, bitmas-tuganmas xazinasidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota-onan farzand uchun hech narsani qizg'onmaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloq qoidasi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh deyilgan..

Shunday ekan, ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatini unutmaslik, duolarini olish – bolalarning farzandlik vazifasi. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talabalaridan biridir. Buyuk bobolarimiz aytganidek, ota-onan uchun xizmat qilmoq farzandlar uchun majburiyatdir: “Ota-onan ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tun-u kuningga nur berib turgan – birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, “adab” so'zidagi “dol” kabi qomatingni ham qil”

Tan olib shuni aytishimiz kerakki, keyingi paytlarda keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshlagandek sezildi Ba'zi yoshlarda kattalarni hurmat qilish, ularning gapiga quloiq solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qolib ketayotgandek. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchalik e'tibor berishmas, lekin biz o'zbeklar buni his qilmay tura olmaymiz. Keksalar uchun ajratilgan “Qariyalar uylari”da farzandlari tirik ota-onalar yashayotganligi achinarli holatdir. Goh-gohida bo'lsa-da, o'z ota-onasiga qo'l ko'targan, undan ham og'irroq jinoyat sodir etgan farzandlar haqida matbuot sahifalarida o'qib, o'ylanib qolasan kishi. Bu – oddiy bir nuqson emas, balki inson uchun ma'naviy tubanlik, bag'ritoshlik, ko'rnamaklikdir, ajdodolarimiz o'gitlarini nazar-pisand qilmaslik, oyoq osti qilishdir. Bunday holatlarni ko'rib, milliy, axloqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining sha'niga dog' tushiradigan bunday yaramas

hodisalar qayerdan paydo bo'ldi, ularning asosiy sababi, ildizi nimadan iborat, degan savol har bir ma'nnaviyatlari insonni o'ylantirishi tabiiy holdir. Shuni aniq aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida, sobiq Ittifoq davrida ayrim yoshlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini chuqur o'rganish, tahlil etish, mohiyatini to'la anglab yetishdan butkul mahrum bo'lib qoldilar. Ajdod-avlodlarimizning o'gitlari, pand-nasihatlari, eng ajoyib an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz tinmay targ'ib-tashviqot qilinishi, odamlar ongi va turmushiga singdirilishi o'rniغا nuqlu qoralandi, yomon otliq qilindi, bid'at, xurofot, deb hisoblandi Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan o'zbek xalq rivoyatlari, ertaklari, dostonlari, maqol va matallari, aruz va baytlari, kuy va qo'shiqlariga unchalik e'tibor berilmadi, ular sinchiklab o'rganilmadi. Bularning o'rniغا Yevropa boshqa xalqlarning madaniy-ma'nnaviy meroslariga ruju qilindi. O'nlab yillar davomida biz ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatimizdan bebahra qilib qo'yidik. Ana shu kasofatlar tufayli diniy, axloqiy, madaniy-ma'nnaviy qadriyatlarimizning, oila, maktab, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnilar ta'lim-tarbiyasining hayot sinovidan o'tgan bebaho boyliklaridan judo bo'la boshladik, bora-bora ularni unutdik va bugun xalqimiz orasida turli illatlarga duch kelib turibmiz.

Milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga teskari bo'lgan bunday salbiy hodisalarning uzoq davom etishiga ortiqcha chidash, sabr-toqat qilish mumkin emas edi. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi. Mustaqilligimiz ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarida ham tub burilish davrini boshlab berdi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladи.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. RASMIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1998. - 48 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: «Sharq matbaa-nashriyoti konserni», 1997. - 20-29 betlar.
3. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" nomli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent, 2017
4. Mirziyoyev Sh. M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Toshkent, 2017
5. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent "Ma'nnaviyat". 2008 y 173 bet.

II. Ilmiy, ilmiy-metodik, badiiy- publisistik adabiyotlar.

6. Al-Buxoriy, abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil, Al-adab-al Mufrad (Adab

durdonalari): Tarjima, muqad va izohlar muallif Sh.Boboxonov-T.: «O‘zbekiston»,1990. -199 bet.

7. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
 8. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta’lim nazariyasi) Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo’llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik komponiyasi bosh tahririysi. T.: 2006 y. 125 bet
 9. Avloniy A.Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «O‘qituvchi» 1992. -160 bet.
 10. Barkamol avlod – Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet
 11. Falsafa. Qomusiy lug‘at. –T.: «Sharq», 2004. -467 bet.
 12. HasanboyevJ., To‘raqulovX.A.,Haydarov M. Hasanboyeva O., Usmonov N. “Pedagogika fanidan izohli lug‘at” T.: “Fan va texnologiya”. 2009 yil.
- Isomiddinova M. O‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda pedagogning faoliyati va o‘rni. Samarqand davlat chet tililar instituti.